

**TASVIRIY SAN'ATNING BOLALAR HAYOTIDA TUTGAN
AHAMIYATI**

Ikromaliyeva Mahfuza – o'qituvchi

Annotatsiya: Maqolada bolalar hayotida tasviriy san'atning ahamiyati yoritiladi. Unda san'atning tarbiyaviy, psixologik va ijodiy jihatlarini ko'rsatiladi. Rasm chizish bolaning ijodkorligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishi ta'kidlanadi.

Annotation: The article explores the role of visual arts in children's lives. It emphasizes educational, psychological, and creative aspects of art. Drawing helps children develop creativity and independent thinking.

Аннотация: В статье рассматривается значение изобразительного искусства в жизни детей. Подчеркиваются воспитательные, психологические и творческие аспекты искусства. Рисование развивает у детей креативность и самостоятельное мышление.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, bolalar tarbiyasi, estetik tarbiya, ijodkorlik, tasavvur, madaniy meros, san'at ta'limi, pedagogika, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy ko'nikmalar

Keywords: Visual Arts, Child Upbringing, Aesthetic Education, Creativity, Imagination, Cultural Heritage, Art Education, Pedagogy, Personal Development, Social Skills

Ключевые слова: Изобразительное искусство, воспитание детей, эстетическое воспитание, творчество, воображение, культурное наследие, художественное образование, педагогика, личностное развитие, социальные навыки

Tasviriy san'at – bu insonning borliqni o'ziga xos ko'rinishda aks ettirishi va o'z his-tuyg'ularini ranglar, chiziqlar, shakllar orqali ifodalash usulidir. Har qanday yoshdagi insonlar san'atga va undagi turli yo'nalishlariga qiziqishadi. Insonlarga tasviriy san'at turlicha ta'sir qiladi. Bolalar uchun bu oddiygina



mashg'ulot emas, balki fikrlash, turli hissiyotlarni his etish, shu bilan birga ularni qanday ifodalashni o'rganish demakdir. *San'at bolalarga og'zini ishlatib bo'lmaydigan narsani ifodalashga ko'mak beradi. San'at asari ularga qanday his ularni uyg'otganini ochib berish imkoniyatini yaratanda, u so'zga solib bo'lmaydiganlarni ham so'zga solishga harakat qiladi.* Qachon bolalar rasm chizishni boshlashsa, ular o'z dunyoqarashlarini, hissiyotlarni va xotiralarini qog'ozga tushirishni boshlashadi. Rasm chizishni yaxshi ko'radigan bolalarda turli ijodiy g'oyalar boshqalarga qaraganda ko'proq bo'ladi. Bolalar o'z orzularni, hissiyotlarini, aytmoqchi bo'lgan gaplarini o'z rasmda oson ifodalashadi. Bir xil topshiriq berilsada, har bir bola o'z dunyosiga qarab bajaradilar. Masalan: oddiy quyosh rasmini chizishni talab qilishsa, har bir bola o'z tasavvurida paydo bo'lgan quyoshni chizib keladi. Bolalarga tasviriy san'atning tarbiyaviy ahamiyati katta. Ular avvalo, go'zallikka intilishni boshlashadi va atroflariga ijodkorona nazar tashlashni boshlashadi, natijada oddiy buyumlar ham chiroyli ko'rina boshlaydi.

Milliy qadriyatlarni hurmat qilishni o'rganishni boshlashadi. Masalan, milliy naqshlar, kiyimlar, tarixiy obidalarni chizish orqali ularning qanchalik qadrli ekanligini va ularning tarixini o'rganishadi.

Tasviriy san'at bilan shug'ullanish bolalarda sabr-toqat, mehnatsevarlik kabi hislatlarni rivojlanishiga olib keladi. Sababi, rasm chizish vaqtida bola o'z ishini ohiriga yetkazishga harakat qiladi, diqqatni jamlashni o'rganadi.

Hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan art-terapiya (san'at orqali davolash) bolalardagi qo'rquv, stress, xavotirni kamaytirishi tasdiqlangan.

Rasm chizish orqali bolalarda solishtirish va tahlil qilish ham rivojlanadi. Bunga misol: "Bu daraxtning shoxi kattami, bargi, kattami? Qaysi rangda bo'yasam chiroyli chiqar ekan" deb o'ylashi tabiiy holat

San'atning boshqa fanlarni tushunishga ham yordam beradi:

1. Geometriyada shakllarni tezroq tushuna boshlaydi.
2. Tarixiy rasmlar orqali tarixga qiziqishi yana ham oshadi.

Bolalar dars vaqtida ba'zan guruh bo'lib rasm chizishadi yoki ko'rgazmalarda qatnashadi bu esa jamoa bilan ishlash va o'zaro fikr almashishni



o'rgatadi. O'z asarlarini boshqalarga ko'rsatish orqali, bolalarda o'zlariga bo'lgan ishonch ortadi.

San'at orqali bolalar xalqaro madaniyatlar haqida o'rganishadi. Masalan, Yaponiya akvarel san'ati, Turkiya miniaturasi yoki Arabiston naqshlari.

Rasm chizishda bola qo'li bilan ko'p ishlaydi, bu esa bolaning motorikasini rivojlantiradi.

Mutaxassislarining fikricha bolalarga san'atning ijobiy ahamiyati ko'p bular:

Psixologlar: san'at bolalarni tinchlantiradi, ularni ichki dunyosini ifodalashga yordam beradi.

Pedagoglar: san'at mashg'ulotlari bolalarda bilimlarni osonroq o'zlashtirish, darslarga qiziqishni oshirishga yordam beradi.

Olimlar tadqiqotlari: san'at bilan shug'ullangan bolalar boshqa fanlarda ham ijodiy yondashib, muammolarni hal qilishda ustun bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at — bu oddiygina mashg'ulot emas, balki bolaning aqliy, ruhiy, estetik va ijtimoiy rivojlanishining muhim vositasidir. U bolaning tasavvurini kengaytiradi, qalbini go'zallikka oshno qiladi. Bolada ijodkorlik, mustaqil fikrlash, mehnatsevarlik, sabr-toqatni shakllantiradi. Eng muhimi, san'at bolaga hayotni sevdira oladi, uni o'zining baxtli va ijodiy kelajagiga tayyorlaydi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Elliot W. Eisner – “The Arts and Creation of Mind”
2. Cyberlenika.ru